**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING**

**B U Y R U G ‘ I**

**20 23 yil “ 15 „ сентябрь** **№ 230**

Toshkent sh.

**Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filiallari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida**

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filiallari faoliyatini tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 8-sentyabrdagi PQ-296-son qaroriga muvofiq:

a) 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab:

Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika “Ona va bola skrining” markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz);

hududiy perinatal, aholi reproduktiv salomatligi hamda “Ona va bola skrining” markazlari negizida Markazning 14 ta hududiy filiallari tashkil etilganligi;

b) Markaz Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika “Ona va bola skrining” markazi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining;

Markazning hududiy filiallari tegishincha hududiy perinatal, aholi reproduktiv salomatligi hamda “Ona va bola skrining” markazlarining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi etib belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ustavi 1-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining tuzilmasi 1a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining ustavi 2-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi filialining tuzilmasi 2a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filialining ustavi 3-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Andijon viloyati filialining tuzilmasi 3a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro viloyati filialining ustavi 4-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro viloyati filialining tuzilmasi 4a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Jizzax viloyati filialining ustavi 5-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Jizzax viloyati filialining tuzilmasi 5a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo viloyati filialining ustavi 6-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo viloyati filialining tuzilmasi 6a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialining ustavi 7-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filialining tuzilmasi 7a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan viloyati filialining ustavi 8-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan viloyati filialining tuzilmasi 8a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand viloyati filialining ustavi 9-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand viloyati filialining tuzilmasi 9a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Surxondaryo viloyati filialining ustavi 10-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Surxondaryo viloyati filialining tuzilmasi 10a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Sirdaryo viloyati filialining ustavi 11-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Sirdaryo viloyati filialining tuzilmasi 11a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining ustavi 12-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining tuzilmasi 12a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona viloyati filialining ustavi 13-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona viloyati filialining tuzilmasi 13a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Xorazm viloyati filialining ustavi 14-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Xorazm viloyati filialining tuzilmasi 14a-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent shahar filialining ustavi 15-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent shahar filialining tuzilmasi 15a-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Markaz va uning hududiy filiallari rahbarlari:

bir hafta muddatda Markaz va uning hududiy filiallari ustavini qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini;

tegishli muhr, blanklar va boshqalarga o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin.

4. Sog'liqni saqlash vazirining 2022-yil 21-maydagi 152-sonli buyrug'i 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi balansidagi pul mablag'larini, asosiy vositalarni va tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish bo'yicha doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasi 2023-yil 21-sentyabrdan 20-oktyabrga qadar Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi va Respublika "Ona va bola skrining" markazlariga tegishli bo'lgan bino-inshootlar va tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiyadan o'tkazsin hamda inventarizatsiya natijalari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi balansiga o'tkazilishini;

ma'nan eskirgan va foydalanishga yaroqsiz bo'lgan asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni qonunchilikda belgilangan tartibda hisobdan chiqarilishini ta'minlasin.

5. Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika "Ona va bola skrining" markazi direktorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi

Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari bilan birgalikda:

uch kun muddatda inventarizatsiya o‘tkazish bo‘yicha komissiya tuzsin va hududiy perinatal, hududiy aholi reproduktiv salomatlik va hududiy “Ona va bola skrining” markazlariga tegishli bo‘lgan bino-inshootlar va tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiya qilinishini hamda inventarizatsiya natijalari bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining hududiy filiali balansiga o‘tkazilishini;

ma’nan eskirgan va foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni qonunchilikda belgilangan tartibda hisobdan chiqarilishini ta’minlasin.

6. Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi va uning hududiy filiallari hamda Respublika “Ona va bola skrining” markazi va uning hududiy filiallari rahbarlari o‘z markazlarida shtat birliklari qisqartirilishi mumkin bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarni mehnat qonunchiligi rioya qilgan holda ish bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Iqtisodiyot, tahlil va narxlarni shakllantirish boshqarmasi (O.Safarov) ikki hafta muddatda Markazning xarajatlar smetasi hamda yangilangan shtat jadvallarini qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Sog‘liqni saqlash vazirining 3-ilovaga muvofiq ayrim buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari E.Basitxanova zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **A.Inoyatov**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI * BUYRUQLAR UCHUN